

## TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARINI O'TKAZISH ASOSLARI VA SHARTLARI

***Yakubov Xushnudbek Sheribbayevich***

*O'zbekiston Respublikasi*

*Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi*

*mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail: xushnud6982@gmail.com*

***Tursunova Mukarramxon Dilshodjon qizi***

*O'zbekiston Respublikasi*

*Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti*

*E-mail: tursunovamukarramxon2@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ichki ishlar organlari tomonidan o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining huquqiy mohiyati tahlil qiladi. Asosiy e'tibor tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning asoslari (ma'lumotlar, dalillar va topshiriqlar mavjudligi) va shartlariga (protsessual tasdiqlash, vakolatlar doirasida amalga oshirish, maxfiylik prinsipi) qaratilgan. Shuningdek, tegishli tadbirlarni amalga oshirishda vakolatli organlar xodimlarining huquq va majburiyatlari, fuqarolarning shaxsiy huquqlarni va erkinliklarini himoya qilish masalalari ham yoritib berilgan. Maqolada ushbu sohadagi amaliyotni yaxshilash va huquqiy normalarni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** tezkor-qidiruv faoliyati, ichki ishlar organlari, tezkor-qidiruv tadbiri, vakolatli organ, huquqiy asoslari, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish shartlari, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari, qonuniylik, prokuror nazorati.

**Аннотация:** В данной статье анализируется правовая природа оперативно-разведывательных мероприятий, проводимых органами внутренних дел. Основное внимание уделяется основаниям (наличие информации, доказательств и инструкций) и условиям (процессуальное подтверждение, осуществление в рамках полномочий, принцип конфиденциальности) проведения оперативно-разведывательных мероприятий. Также рассматриваются права и обязанности сотрудников уполномоченных органов при осуществлении соответствующих мероприятий, а также вопросы защиты личных прав и свобод граждан. Цель статьи — разработка предложений и рекомендаций, направленных на совершенствование практики в этой области и улучшение правовых норм.

**Ключевые слова:** оперативно-розыскная деятельность, органы внутренних дел, оперативно-розыскные мероприятия, уполномоченный орган, правовая

основа, условия проведения оперативно-розыскных мероприятий, конституционные права и свободы граждан, законность, прокурорский надзор.

**Annotation:** This article analyzes the legal nature of operational-search activities carried out by internal affairs bodies. The main attention is paid to the foundations (availability of information, evidence and instructions) and conditions (procedural confirmation, implementation within the framework of powers, the principle of confidentiality) of conducting operational-search activities. It also covers the rights and obligations of employees of authorized bodies when carrying out relevant activities, as well as the issues of protecting the personal rights and freedoms of citizens. The article aims to develop proposals and recommendations aimed at improving practice in this area and improving legal norms.

**Keywords:** operational-search activities, internal affairs bodies, operational-search measures, authorized body, legal basis, conditions for conducting operational-search measures, constitutional rights and freedoms of citizens, legality, prosecutorial control.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi professional ichki ishlar organlarini shakllantirish O'zbekistonda dolzarb vazifa bo'lib, bu zamonaviy, xalqchil va korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tizimni yaratish, xodimlarning kasbiy madaniyatini oshirish, xizmat intizomini mustahkamlash, xalq bilan muloqotni yaxshilash va qonun ustuvorligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish murakkab va ko'p qirrali vazifa hisoblanadi. Jinoyatchilikning murakkablashuvi, uning yangi shakl va usullarining vujudga kelishi, texnologik imkoniyatlarning suiiste'mol qilinishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarning o'rni beqiyosdir. Ichki ishlar organlarning eng muhim faoliyati yo'nalishlaridan biri tezkor-qidiruv faoliyati bo'lib, u jinoyatlarni barvaqt aniqlashda, oldini olishda, sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan ochishda, qidiruvdagi shaxslarni ushlabda hamda jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlashda va qo'lga olishda hamda eng muhimi, jinoyatchilikka chek qo'yishda muhim ahamiyatga ega.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda maxsus vakolatli organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-344-sonli Qonuni hamda unga tegishli normativ-huquqiy

hujjatlar asosida olib boriladi. Bu jarayonda inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan yondashish muhimdir. Demak, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslanib, ichki ishlar organlari tomonidan turli tezkor-qidiruv tadbirlarini (*masalan, so'rov, ma'lumotlar to'plash, qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig'ish va boshqalar*) o'tkazishning huquqiy asoslari va amaliy shartlarini chuqur tahlil qilish va tizimlashtirishdan iborat.

Ichki ishlar organlari bu yo'nalishda markaziy o'rinni egallaydi. Ular tezkor ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, tezkor kombinatsiyalarni o'tkazish hamda jinoyatga aloqador shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni aniqlash kabi vazifalarni bajaradi. Bunda – qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, konspiratsiya, oshkora va nooshkora usullar uyg'unligi prinsiplariga qat'iy amal qilinadi<sup>[1]</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, tezkor-qidiruv faoliyati - ushbu Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari (*bundan buyon matnda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar deb yuritiladi*) tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir<sup>[2]</sup>. Shu sababli, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda asoslar va shartlarning to'g'ri aniqlanishi, hujjatlashtirilishi va nazorat qilinishi eng muhim masalalardan biridir. Qonunning 4-modda. Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ❖ inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki himoya qilinishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash;
- ❖ jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish;
- ❖ surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yo'qolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash;
- ❖ shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to'plash.

<sup>1</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/tezkor-qidiruv-faoliyati-prinsiplarining-inson-huquqlari-erkinliklari> va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/2107763?ONDATE=01.12.2020&action=compare>. Murojaat vaqti: 30.12.2025 y.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda maxsus vakolatli organlar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazadi. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun asoslar Qonunning 15-moddasida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- ✓ jinoyat ishining mavjudligi;
- ✓ surishtiruv, tergov organlarining yozma topshirig'i, prokurorning ko'rsatmasi va topshirig'i;
- ✓ agar jinoyat ishi qo'zg'atish uchun yetarli asoslar bo'lmasa, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga jinoyatlarni tayyorlash, sodir etish alomatlari to'g'risida, shuningdek jinoyatlarni tayyorlashga yoki sodir etishga daxldor shaxslar haqida ayon bo'lib qolgan ma'lumotlar;
- ✓ shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqidagi axborotning mavjudligi;
- ✓ tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslar, bedarak yo'qolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar to'g'risida, shuningdek topilgan tanib olinmagan murdalar haqida ayon bo'lib qolgan ma'lumotlar;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqiy yordam ko'rsatish sohasidagi hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalari asosida kelib tushgan so'rovnomalar;
- ✓ tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa organlarning so'rovnomalari.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar, o'z vakolatlari doirasida, quyidagi qarorlarni qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni to'plashga haqli:

- davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlardan foydalanish yoxud o'ta muhim va toifalangan obyektlarni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq ishlarga ruxsat berish to'g'risida;
- tezkor-qidiruv faoliyatida ishtirok etishga ruxsat berish yoki ushbu faoliyatni amalga oshirish natijasida olingan materiallardan foydalanishga ruxsat berish to'g'risida;
- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashayotgan shaxslar bilan hamkorlik o'rnatish to'g'risida yoki bunday hamkorlikni qo'llab-quvvatlash haqida.

Har bir tezkor tadbirni boshlash uchun qonun bilan belgilangan **ruxsatnoma**, **asoslovchi ma'lumot** yoki **tegishli yozma topshiriq** mavjud bo'lishi shart. Bu tartib fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va shaxsiy daxlsizligini himoya qilishga xizmat qiladi<sup>[3]</sup>.

<sup>3</sup> Sheribboevich, Y. K. (2024). BASICS OF A QUICK EXPERIMENT CONDUCTING OPERATIONAL SEARCH EVENTS. International Journal Of Law And Criminology, 4(07), 30-37.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish asoslar bo'lgani kabi, ularni o'tkazishda lozim bo'lgan shartlari ("Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi) ham ko'rsatilib o'tilgan:

1. Turar joy daxlsizligiga, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar va boshqa so'zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqlarni cheklovchi, shuningdek abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risidagi axborotni olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishiga prokuror sanksiyasi asosida yo'l qo'yiladi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazilishiga prokuror sanksiyasi asosida yo'l qo'yiladi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

2. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan asoslantirilgan qaror asosida yo'l qo'yiladi, prokuror bu haqda yigirma to'rt soat ichida albatta xabardor qilinadi.

3. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan, uzoq davom etadigan tezkor-qidiruv tadbiri o'tkazilgan taqdirda, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ bunday tadbirni o'tkazish haqida tadbir boshlangan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida prokurorning sanksiyasini olishi yoxud tadbir o'tkazishni tugatishi shart.

4. Fuqarolarning hayotiga, sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, xuddi shuningdek ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan tahdid yuzaga kelgan taqdirda, ularning telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olishga mazkur shaxslarning arizasiga yoki yozma roziligiga ko'ra, qonunchilikka muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tasdiqlagan qaror asosida ruxsat etiladi, prokuror bu haqda yigirma to'rt soat ichida albatta xabardor qilinadi.

5. Tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish, tezkor kuzatuv, tezkor kiritish, O'zbekiston Respublikasining ichkarisida amalga oshiriladigan nazorat ostida yetkazib berish, niqoblangan operatsiyalar, tezkor eksperiment tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o'tkaziladi. Tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish va nazorat ostida yetkazib berish prokuror bilan albatta kelishilgan holda amalga oshiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali predmetlarni olib o'tishga (olib kirish, olib chiqish, tranzit) yo'l qo'yiladigan nazorat ostida yetkazib berish bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilgan holda va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

7. Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish, tezkor kuzatuv, pochta, kuryerlik jo'natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, agar shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash uchun haqiqiy ma'lumotlarni boshqa yo'l bilan olish imkoni bo'lmasa, istisno choralar sifatida amalga oshiriladi.

8. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan ma'lumotlar jinoyat-protsessual tartibda dalil sifatida qo'llanilishi uchun qonuniy tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv faoliyatining samaradorligini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va Qonunchilikka qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish zarur. Bu chora-tadbirlar jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi. Shu asnosida, jinoyatlarni tezroq aniqlash va profilaktika choralarini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tezkor-qidiruv faoliyati — ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi eng muhim vositalaridan biridir<sup>[4]</sup>. Uni amalga oshirishda qonuniylik, inson huquqlariga hurmat, maxfiylik va mas'uliyat tamoyillariga rioya etilishi muhimdir. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning aniq asoslari va shartlarini to'g'ri belgilash nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshiradi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladi hamda davlat xavfsizligini mustahkamlaydi.

Tezkor-qidiruv faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun:

- Vakolatli organlar o'rtasida hamkorlik tizimini kuchaytirish;
- Tezkor xodimlarning kasbiy malakasini oshirish;
- Faoliyatni yuritishda xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni joriy etish;
- Inson huquqlarini himoya qilishga oid ichki yo'riqnomalarni takomillashtirish zarur<sup>[5]</sup>.

Shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda ma'naviy qadriyatlar, xususan, halollik, vatanparvarlik, mas'uliyatlilik kabi sifatlarning mavjudligi ham xodimlarning faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Umuman olganda, ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv faoliyatini takomillashtirish — bu nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish,

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/3027843?ONDATE2=21.04.2021&action=compare>

<sup>5</sup> Akmaljon o'g, A. A. A., & Yakubov, X. S. (2025). "OSINT" XALQARO QIDIRUV TIZIMI, UNING RIVOJLANISH TARIXI HAMDA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. EDUCATION AND SCIENCE YESTERDAY AND TODAY, 1(1).

balki davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashning muhim kafolatidir. Shu sababli mazkur yo'nalishda ilmiy-tahliliy tadqiqotlarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz>.
2. Akmaljon o'g, A. A. A., & Yakubov, X. S. (2025). "Osint" xalqaro qidiruv tizimi, uning rivojlanish tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyati. education and science esterday and today, 1(1).
3. Sheribboevich, Y. K. (2024). Basics of a quick experiment conducting operational search events. International Journal Of Law And Criminology, 4(07), 30-37.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Ички ишлар органлари тўғрисида" Қонуни, 16.09.2016 йилдаги ЎРҚ-407-сон
5. Akmaljon o'g, a. A. A., & Yakubov, X. S. (2025). "Osint" xalqaro qidiruv tizimi, uning rivojlanish tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyati. Education and science esterday and today, 1(1).